

TTPUda talaba-yoshlar o'rtasida o'quv-ma'rifiy tadbir

Joriy yilning 27 iyun kuni, Toshkent shahridagi Turin politexnika universitetida talaba-yoshlar o'rtasida "Ma'rifatli yoshlar – Yangi O'zbekiston bunyodkorlari" nomli o'quv-ma'rifiy tadbir o'tkazildi.

O'quv-ma'rifiy tadbirning kun tartibidagi belgilangan masalar yuzasidan universitet birinchi prorektori A.Ashurov so'zga chiqib, bugungi rivojlangan globallashtirish va axborot almashinuvi davrida odam savdosi, giyohvandlik, diniy-ekstremistik g'oyalarni tarqatish, targ'ib etishga qaratilgan buzg'unchi g'oyalar keng tarqatilayotganligi nafaqat yurtimiz jamoatchiligi, balki jahon hamjamiyatini jiddiy tashvishga solmoqdaligini aytib o'tdi.

Shunday murakkab globallashtirish jarayonida yurtimiz yoshlarini diniy ekstremistik hamda turli yot g'oyalar, "ommaviy madaniyat" ko'rinishlari ta'siridan asrash jamiyatimiz, nafaqat ziyolilar balki har bir insonning ongli ravishda yondashadigan va oldida turgan eng muhim vazifalardan biri hisoblanadi.





Ushbu masalalarni yoritib berish uchun soʻz Oʻzbekiston xalqaro islom akademiyasi katta oʻqituvchisi S.S.Saidjalolovga berildi. Ular oʻz maʼruzalarida mamlakatimizda ijtimoiy-siyosiy vaziyat va maʼnaviy muhit barqarorligini taʼminlash, dinlar va millatlararo munosabatlarni yaxshilash borasida keng koʻlamli ishlar olib borilayotganligini taʼkidladilar. Hozirgi kunda diniy-ekstremistik oqimlar tomonidan tarqatilayotgan gʻoyalarning jamiyatimiz tinchligi va xavfsizligiga solayotgan tahdidlarni bartaraf etish yoʻlida Oʻzbekiston Respublikasi Din ishlari boʻyicha qoʻmita tomonidan yoshlar oʻrtasida keng qamrovda diniy-maʼrifiy tadbirlar tashkil etilayotgani haqida soʻzlab oʻtdilar.

Shuningdek, S.Saidjalolov maʼruzalari davomida yoshlarni turli illatlar, yot gʻoyalar taʼsiriga tushib qolishining oldini olish, “ommaviy madaniyat” koʻrinishlariga qarshi kurashish, internet maʼlumotlaridan toʻgʻri va oʻrinli foydalanishga barcha ishtirokchilarning eʼtiborini qaratdilar. Chunki, milliy maʼnaviyatimizga, mentalitetimizga yot gʻoyalar,

shavfqatsizlikni targ'ib etuvchi ma'lumotlar yoshlarimizning ongini zaharlamogda. Jumladan, yoshlarga qurolli to'qnashuvlar ro'y berayotgan hududlarda faoliyat yuritayotgan terroristik guruhlar, ularning jirkanch maqsadlari haqida hayotiy misollar asosida ma'lumotlar berildi.

Tadbirda Yangi O'zbekistonni barpo etish, Uchinchi Renessans poydevorini mustahkamlash uchun har bir yurtdoshimiz, ayniqsa, yoshlarimiz faol va fidoyi bo'lishlari, berilayotgan imkoniyatlardan unumli foydalanib, Vatanimiz ravnaqi va taraqqiyotiga xizmat qiladigan insonlar bo'lib kamol topishlari muhim ekanligi alohida qayd etildi.